

O'zbek bolalar adabiyotining shakllanishida usuli savtiya darsliklarining ahamiyati

Xurshida Hamrakulova,

filologiya fanlari doktori, Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, Toshkent, Gavhar ko'chasi 1-uy, Tashkent 100149, O'zbekiston

xamrakulova.xurshida@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10439200>

Annotatsiya: Maqolada bolalar adabiyotining turli davrlarda tutgan o'rni, xususan bolalar folklorining o'zbek xalq og'zaki ijodiga ta'siri, mumtoz adabiyotda didaktik tamoyilning ustuvorligi, jadid adabiyotining bolalar adabiyotining fan sifatida shakllanishiga qo'shgan hissasi, hozirgi o'zbek bolalar adabiyoti va bolalaradabiyoti.uz multimediali elektron platformasining bolalar adabiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati xususida bahs yuritiladi.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, milliy pedagogika, jadid adabiyoti, darslik, alifbo, o'qitish tizimi, didaktik asar, hikoya, badiiy matn, usuli savtiya.

KIRISH

Bolalar adabiyotining fan sifatida shakllanishi XX asr boshlarida usuli jadid maktablarida yaratilgan ilk alifbo va darsliklarga badiiy matnlar sifatida kirib kelishi bilan boshlandi. Bolalar adabiyotining rivojlanishida bolalar folklorining ahamiyati alohida o'rin tutadi. Bola tug'ilganidan to esini tanish davrigacha bo'lgan vaqt oralig'idagi aytimlar bolaning chor atrofga munosabatini belgilash bilan barobar bolalar folklorining yashovchanligiga ham xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti bolaning ruhiyati, ma'naviyatiga ta'sirini o'tkazadigan, uni kamolot bosqichiga tayyorlaydigan adabiyotdir. Shu bois Sharq xalqlari adabiyotida bolalar adabiyoti alohida o'ringa ega. Sharq ma'rifat maktabida "Kalila va Dimna", "To'tinoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diy Sheroziyning "Guliston", "Bo'ston", Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub", "Xamsa" turkumidagi dostonlari qa'tiga singdirilgan pand-nasihat tarzidagi hikmatlar, Xojaning "Gulzor", So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" kabi durdona asarlarida inson ma'naviyati, tarbiyasi, kamolot bosqichida muhim o'rin tutuvchi didaktik hikoyatlar, purhikmat ifodalar o'rin topganki, bu asarlar mutafakkirlarning farzand tarbiyasiga bee'tibor bo'lmaganini ko'rsatadi. Bolalar adabiyotining taraqqiyotida Sharq adabiyoti o'lchovsiz ta'sirga ega.

Bolalar adabiyotida didaktik funktsiya yetakchilik qilgani uchun ta'lim va tarbiya bilan birga olib boriladi. Boshlang'ich sinflar "O'qish kitobi" darsliklarida ham asosan bolalar adabiyotiga oid materiallar izchil o'rin oladi. Bolalar adabiyoti bola ruhiyatining rivojlanishi hamda ta'lim va tarbiyada quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Bu adabiyot bolani sharqona axloq bilan tarbiyalanishida muhim ahamiyatga ega.

2. Asar mazmuniga singdirilgan g'oya bola tafakkurini rivojlantiradi.
3. Badiiy matndagi topqirlikka da'vat qilingan o'rinlar bola xarakterida faollikni rivojlantiradi.
4. Ramzlar vositasida ifodalangan obrazlar bola tasavvur olamini kengaytiradi, bolani mantiqiy analiz qilishga o'rgatadi.
5. Bolalar adabiyoti bolaning nutqini o'stiradi, hozirjavoblikka o'rgatadi.
6. Bolalar adabiyoti bolaning o'zaro muomala-munosabatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.
7. Bolalar adabiyoti xotirani kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois milliy adabiyotimizda bolalar adabiyoti o'z o'rniga ega.

MATERIAL VA METODLAR

Ushbu maqolani yoritishda Yo'ldosh Abdullayevning "Eski maktabda xat-savodga o'rgatish", Ulug'bek Dolimovning "Turkistonda jadid maktablari", Mo'min Fattayevning "Atoqli pedagoglarimiz" kabi ilmiy kitoblarida keltirilgan dastlabki alifbo va darsliklarga oid badiiy matnlar, Hamzaning "Tanlangan asarlar" II jildiga kirgan "Mevalar mojarosi" turkumi tahlil qilingan. Tahlilda qiyosiy tipologik, sotsiologik va stilistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Bolalar adabiyotining maktab darsliklarida o'rinishuvi usuli savtiyaga asoslangan maktablardan boshlangani uchun mazkur maqolada shu davrga oid asarlar va darsliklarga e'tibor qaratildi. Bolalarning psixologik olamini hisobga olib yaratilgan tom ma'nodagi bolalar adabiyoti usuli jadid maktablari uchun yaratilgan darslik va qo'llanmalardan boshlandi.

Yangi usul maktablari 1895-yildan ochila boshlangan bo'lsa ham Turkistonda yangi usul maktablarining soni 1905-yildan keyin tez ko'paya boshladi. Chor hukumati 1908-yilgacha yangi usul maktablarini ro'yxatga olmagan. Bu turdagi maktablar mavjud hukumatning va mahalliy din peshvolarining ham maqsad-muddaolariga zid edi. 1908-yilga qadar XX asr boshlariga qadar yurtimizda musulmon diniy maktablari – eski maktab, ya'ni maktabxona, madrasa, shuningdek, qorixona deb yuritilgan o'quv yurtlari mavjud edi. Qorixona va madrasaga maktabni bitirgan o'spirinlar qabul qilingan va taxsil har birida 3-4 yil davom etgan.

Nafaqat bolalar adabiyoti, balki boshqa dunyoviy fanlarni o'qitish eski maktablarda ko'zda tutilmagan. Eski maktabda asosiy darsliklari hisoblangan “Haftiyak” va Chor kitob” arab imlosini o'rganish, Qur'on suralarini yod olish, diniy kitoblardan ta'lim olishga qaratilgan. Manbalardan kuzatganimiz bo'yicha eski maktabning bola ta'lim va tarbiyasiga, barkamol o'sishiga to'siq bo'luvchi quyidagi omillar bor edi:

1. Maxsus binoga ega bo'lmagan. Maktabxonalarning aksariyati sanitariya-gigiena talablariga javob bermagan.
2. Eski maktabni bitirgan qizlar uchun yuqoriroq musulmon maktabi bo'lmagan.
3. Bolani maktabga necha yoshdan borishi qat'iy belgilanmagan. 5-8 yosh oralig'ida berilavergan. Bolaning maktabga qabul qilinish vaqti ham belgilanmagan. Qay faslda maktabga borsa qabul qilinavergan.
4. Qishloqlarda bahordan to kech kuzgacha o'qitilmagan. Bolalar ish bilan band bo'lgan.
5. Maktabxonada dars boshlanish vaqti qat'iy bo'lmagan. Maktabdagi o'qishlar qat'iy dastur yoki jadval asosida olib borilmagan.
6. O'qilayotgan matnning ma'nosini anglamasdan takrorlashlik bolani o'qishdan bezdirgan. Anglab o'qish bo'lmagan. Matn ustida ishlanmagan. “Ajnabiy tillardagi kitoblar o'zbek tiliga tarjima qilinmagan, o'qilgan so'z yoki gaplarning ma'nosini anglashga urinish, ularni o'zbekchaga tarjima qilishni talab etish, o'qilgan matn xususida savol berish, u haqda mustaqil o'ylash gunoh hisoblangan. Bolalar gunohkor bo'lib qolishdan juda qo'rqqanlar. Aslida esa “Haftiyak”, “Chorkitob” va boshqa o'quv kitoblaridagi so'z va jumalarning ma'nosini ko'p otinoyi va domlarning o'zlari ham bilmas edi. “Qur'on”ning ma'nosini arab klassik adabiy tilini yaxshi bilgan kishilargina tushungan. O'qitilayotgan kitoblar bolalar yoshiga mos bo'lmagani, ma'lumotlar o'zbek tilida emas, arab va fors tilida bo'lgani uchun bolalarga o'zlashtirish nihoyatda murakkablik qilgan. Maktablardagina emas, madrasalarda ham o'zbek tilida hech narsa o'qitilmas edi.

7. Eski maktabda tan jazosi qo'llangan. Bu haqda Sadriddin Ayniy “Eski maktab” qissasida batafsil to'xtab o'tgan.

8. Eski maktabda domlalar bolalar bilan maktabxonadan tashqarida hech qanday ish olib

bormagan. Ayrim yerlarda Navro'z sayliga olib chiqilgan xolos.

9. O'qish va yozish bir vaqtda o'rgatilmagan. Ba'zan yozishni bilmay ham maktabni bitirishgan. O'qish hijo usuli bilan o'rgatilgan. Bu uch bosqichli bo'lib, harflarning nomini yodlatish, bo'g'in hosil qilish, bo'g'inlarni qo'shishdan iborat bo'lgan.

Nafaqat bolalar adabiyoti, balki boshqa dunyoviy fanlarni o'qitish eski maktablarda ko'zda tutilmagan. Eski maktabda asosiy darsliklari hisoblangan “Haftiyak” va Chor kitob” arab imlosini o'rganish, Qur'on suralarini yod olish, diniy kitoblardan ta'lim olishga qaratilgan. O'qitilayotgan kitoblar bolalar yoshiga mos bo'lmagani, ma'lumotlar o'zbek tilida emas, arab va fors tilida bo'lgani uchun bolalarga o'zlashtirish nihoyatda murakkablik qilgan. Maktablardagina emas, madrasalarda ham o'zbek tilida hech narsa o'qitilmas edi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar ta'limni isloh qilish zaruratini paydo qildi. Islohot XX asrning boshlarida jadidlar tomonidan amalga oshirildi. Buning natijasida bir qancha darsliklar, fanlar yuzaga keldi.

Jadid milliy pedagogikasinni sinchiklab nazardan nazardan o'tkazilsa, bolalarbop matnlarning barchasida badiiy adabiyotning didaktik funksiyasi yetakchilik qiladi. Albatta, Sharqning va milliy adabiyotning sara asarlaridan oziqlangan bolalar adabiyoti uchun didaktikaning ustuvorligi tabiiydir. Bu, ayniqsa, milliy uyg'onish davri pedagogikasida asosiy mezon bo'lib qoldi. Negaki, bolalar adabiyotidagi matnlarning bola yoshiga mos bo'lishi, yengil o'zlashtirilishi, matn qatidagi ma'noning bo'rtib turishi, syujet rivojida birozgina kinoyaviy ruhning mavjud ekanligi, bu ruh asarga kulgi baxsh etishi yoxud asarni bola ko'z o'ngida jonli namoyish qilishga xizmat qilishi (nihoyada, kinoya matndan chiqarilgan xulosani tasdiqlashi lozim), obrazlarni qiyoslash bola ixtiyoriga havola qilinishi, chiqarilgan xulosa ongda jonlangan voqelikka mos kelishi ularning tasavvurini boyitish va tafakkurini kengaytirish imkonini bergan. Albatta, bolalar adabiyotiga qo'yilgan talablar kichik matn zamiriga singib ketadi. Buni chuqur anglagan jadid pedagoglari dastlabki darsliklarida ijodiy matnlarning kiritilishiga e'tibor qaratdilar. Bolaning kelajakda kim bo'lib kamolga yetishuvi bolalar adabiyotining unga ko'rsatgan ta'siri bilan o'lchanadi. Shuning uchun bolalarga yoziladigan asarlar kattalarga yoziladigan asarlardan ko'ra qiyinroq, bolalar ijodkorlarining mas'uliyati ikki hissa kattaroqdir.

Yangi usul maktablarida tez savod chiqarish usuli maddiya, ayniqsa, usuli savtiya metodi orqali amalga oshirilgach, bolalarning matnlarni sidirg'asiga o'qib tushunish va qayta hikoya qilish, shu asnoda yangi matnlar tuzishlari uchun albatta kichik matnlarga zaruriyat sezilgan. Avvaliga rus-tuzem maktablari darsliklaridan ijodiy foydalangan metodistlar keyinroq mustaqil tarzda o'qish kitoblarini yaratdilar. Har bir darslik muayyan mavzular asosidagi matnlar bilan boyitildi. E'tiborlisi, bu matnlarning aksari milliy turmush tarzimiz,

qadriyatlarimiz asosida yaratildi. Izlanishlar tezda o'zining samarasini berdi, ammo pirovardida millat o'rtasida ham ikkiga bo'linish yuzaga keldi. Ya'ni "qadimchi"lar (eski maktab tizimini targ'ib qiluvchilar) va jadid pedagoglari o'rtasida kechgan janglar siyosiy tus oldi, jadidlar faoliyati hukmron mafkuraga tahdid soldi. Garchi mavjud hokimiyat usuli jadid maktablariga yon berishga majbur bo'lsa ham, yangi usul maktablari ming mashaqqatlar bilan faoliyatini davom ettirdilar. Keyinroq bu faoliyatga ham batamom chek qo'yildi. Shunga qaramay, jadidlar millatning tafakkur o'zanini yangi sarhadlarga burib yubordi.

O'z-o'zidan bolalar adabiyotiga oid manbalarni o'qitish eski maktablarda ko'zda tutilmagan. Bu yerda bola shaxsini rivojlantirish, uning tafakkur va tasavvurini kengaytirishga qaratilgan badiiy matnlar haqida gap ham bo'lmagan. Savodga o'rgatishning hijo metodi, notanish tildagi asarlarni quruq yodlash albatta ta'limni jiddiy isloh etishni talab qilar edi

Jadid pedagogikasida bolalarni muayyan bir vazifaga da'vat etuvchi pand-nasihat mavzusidagi asarlar asosiy o'rin tutgan. Bolalar adabiyotining tadqiqochisi Rahmatilla Barakayev to'g'ri ta'kidlaganidek, "o'zbek bolalar she'riyatining har bir davrdagi mavzu ko'lamini muayyan davr xususiyati bilan belgilanib, asosan o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan mavzularni qamrab oladi"[2. B. 148]. Sharqona qadriyatlarga asoslangan didaktik ruhda asarlarning o'tgan asr boshi bolalar adabiyotiga xos xususiyat bo'lgani tabiiydir. Uzoq asrlar mobaynida xalq sevib o'qigan "Guliston", "Bo'ston", "Qobusnoma", "Kalila va Dimna", "Gulzor", "Zarbulmasal" kabi asarlardan oziqlangan millat tafakkuri o'z-o'zini taftish qiluvchi, o'zini kashf etishga qaratilgan keng asarlarni emas, aynan yangi usul darsliklarida berilgan hikoyatlar, masal, hikmatlarni oson qabul qilgan. Shu o'rinda aytish kerakki rus tuzem maktablarining o'zbek sinflarida Sa'diyning "Guliston va "Bo'ston" asarlaridan ham foydalanilgan. Pand-nasihat mavzusi yetakchilik qilgan asarlarda muallif shaxsi asosiy o'rin tutadi. Bunday asarlarda bolalik olami bo'rtib turuvchi psixologik jihatlarga, bolaning qiziqishlari, uning tafakkuri va tasavvuriga urg'u berilmaydi. Hikoyachi yetakchi mavqeda turadi. Natijada, badiiy matn bolaga bir tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni bunda tashqi ta'sir sezilarli oshadi. Bu tipdagi asarlarda ham g'oyadan kelib chiquvchi xulosalar asosiy o'rin egallaydi. Shunga qaramay, o'tgan asr boshi millat tafakkurini yangilash uchun bu kabi asarlarning jasorat bilan darsliklarga tatbiq qilinishi katta voqelik hisoblangan. Bolalarning yoshi va saviyasini hisobga olib yaratilgan bolalar adabiyoti usuli jadid maktablari uchun yaratilgan darslik va qo'llanmalardan boshlangan.

Tovush metodidagi ilk kitob S.Saidazizovning "Ustodi avval" kitobidir. Yangi zamon bolalar adabiyotining shakllanishiga aynan shu kitob sabab bo'ldi. Ilk o'zbek alifbosi hisoblangan "Ustodi avval"ning 1903-yildagi 2-nashrida "Tulki

birla echki", "Yo'lbars birla sichqon", "Bo'ri birla laylak", "Tulki birla xo'roz", "Tulki birla laylak", "Pashsha birla ari", "Ayiqlik birla qishloqi", "Bo'ri birla echki", "Qurbaqa birla xo'kiz", "Bola va otasi" kabi tarjima matnlar berilganiga qaramay, mana shu asarlar orqali bolalar yoshi, ruhiyati, qiziqishlarining inobatga olingani "Ustodi avval"ning bolalar adabiyotini shakllantirishdagi muhim bosqich bo'lganini ko'rsatadi.

"Ustodi avval"ning birinchi bo'limi hisoblangan alifbe davri yakunlangach, keyingi bo'limlarda bilimga targ'ib qilish va tarbiya xususidagi "Dunyoning yorug'ligi ilm birla. Ilmsiz aql – yengsiz kiyim. Ko'p bil, oz so'zla. O'ylamay so'zlagan og'rimay o'lur. Tilingni saqla o'zingni chaqmasun. Birovni g'iybat qilmoq gunohlar kattasidir. Nodon so'zig'a sukut javobdur. Avval o'yla keyin so'yla" kabi maqollar, didaktik ruhda she'r va hikoyalar berilgan.

Alifbo va o'qish kitoblari muallimlarining rus-tuzem maktablarida dars bergani, o'sha yerdagi muhitni yaxshi bilgani ham qaysidir darajada bolalarbop asarlarning tarjimalaridan keng foydalanganiga sabab bo'lgan. Masalan, Ali Asqar Kalininning 12 bobdan iborat "Muallimi soniy" asari boshlang'ich sinflarning 3-4-bo'limlari uchun mo'ljallangan. Bu asardagi badiiy matnlarning aksari S.M.Gramenitskiy o'qish kitoblaridagi badiiy matnlarning tarjimasidan iboratligi ham avvalo shu davrda bolalarga maxsus mo'ljallangan asarlarning bo'lmaganligi va tarjima qilingan asarlarning aynan bolalarbopligi bilan belgilansa xato bo'lmas. Shuningdek, dastlabki darslik kitoblarining chop qilinish taqdiri rus arboblarga bog'liq bo'lib turganda shu yo'l bilan millat ta'limiga hissa qo'shish ham katta jasorat edi.

Ilk alifbo va kitoblar nafaqat o'zbek, balki tojik tilida ham chiqqan boshlagan. Samarqand va Buxorodagi ijtimoiy sharoit shuni talab qilgan. Tojik tilidagi ana shunday kitoblardan biri 1907, 1911-yillarda Abduqodir Shakuriy tomonidan boshlang'ich maktabning ikkinchi sinfi uchun xrestomatiya sifatida tuzilgan "Jomeul-hikoyat" ("Hikoyalar to'plami") kitobidir. Bu kitob muallifning maktab o'quvchilari uchun tuzgan ikkinchi kitobidir. (Birinchi "Rahnamoi savod" ("Savod chiqarish rahbari") – so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib o'qish uchun mo'ljallangan kichik xrestomatiya hisoblangan). Unda Firdavsiy, Nizomiy, Sa'diy, Jomiy asarlaridan olingan hikoya, g'azal va masallar bilan bir qatorda, rus yozuvchilarining asarlaridan tarjima qilingan hikoya va masallar ham berilgan. Jumladan, I.A.Krilovning "Maymun va ko'zoynak", "Qarg'a va tulki", L.N.Tolstoyning bolalar uchun yozilgan "Bobo va nabira", "Ikki o'rtoq", "Petr Birinchi" kabi hikoyalari kiritilganki, buni shu davrda bolalar katta qiziqish bilan o'qiganlar. Muallif har bir hikoya oxiriga mazmunli xulosalar bera olgan. Muallif asarlar tarjimasida ham o'ziga xos yo'l tutgan. Ya'ni jumalarning soddaligiga, xulosaning mumtoz adabiyotimiz an'analariga muvofiq she'riy yo'lida berilishiga e'tibor bergan. Masalan, L.Tolstoyning

“Ikki o‘rtoq” hikoyasi tarjimasi fikrimizning to‘g‘riligini to‘la tasdiqlaydi.

“Ikki o‘rtoq o‘rmonda o‘tib ketar edi. To‘satdan oldilaridan bir ayiq chiqib, ularga hamla qildi. Ularning biri tezlik bilan yashirindi. Ammo ikkinchisi ojizlik qildi. Qochishga ulgur olmay, yerga yiqilib, o‘zini o‘likka o‘xshatib harakatsiz yotdi. Ayiq uning oldiga kelib, hamma joyini iskab ko‘rdi va o‘lik gumon qilib qaytib ketdi. Ayiq ketgandan keyin yashiringan tashqari chiqdi va kulimsirab o‘rtog‘idan so‘radi: “Ey do‘stim, ayiq sening qulog‘ingga nima dedi?”

L.Tolstoy o‘z hikoyasini “U menga xavf va qiyinchilik vaqtlarida o‘z o‘rtog‘ini tashlab ketgan kishilar eng yomon odamdurlar” deb xulosalaydi. Shakuriy boshqacha yo‘l tutdi: u Sa‘diyning misralari bilan yakunlashni ma‘qul ko‘rdi:

Do‘st mashmor, on ki dar ne‘mat zanad
Lofi yoriyu barodar xondagi.
Do‘st on boshad, ki girad dasti do‘st
Dar pareshonholiyu, darmondagi.

Ya‘ni dasturxon ustida do‘stlik va birodarlikdan lof urgan kishini do‘st sanama. Parishon va nochor qolganda do‘stiga qo‘ldosh bo‘lgan kishigina do‘st bo‘ladi [4. B. 17-19].

Aslida Tolstoy xulosasi berilsa ham darslik yutqazmas edi. Ammo Shakuriy xulosani yumshoqroq qilib, ya‘ni eng “yomon odamdur” degan keskin fikrni “do‘st sanama” degan shaklda bayon etadi. Bu bilan bola tarbiyasida so‘zning ahamiyatini oshiradi.

Shakuriy ijodiy pedagogik faoliyatiga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, Abduqodir Shakuriy birinchilardan bo‘lib maktabda kichik yoshdagi o‘g‘il bola va qiz bolalarni birga o‘qitish metodini joriy qilgan, uning tashabbusi bilan Samaraqand maktablariga mehnat va musiqa darslari kiritilgani, o‘z o‘quvchilarini qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikka oid ishlar bilan tanishtirishdan tashqari, muqovachilik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o‘rgatishi va bu mashg‘ulotlar uchun maktab proqrammasidan alohida soatlar ham ajratgan, kattalar uchun kechki maktablar tashkil qilgan [4. B. 21-30].

Milliy uyg‘onish davri pedagogikasini chuqur o‘rgangan adabiyotshunos olim Ulug‘bek Dolimov “Turon” jamiyati qoshidagi “Maktab kutubxonasi” nashriyotida A.Avloniyning “Birinci muallim”, “Ikkinchi muallim” (keyingi nashrlari), Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy” (keyingi nashrlari), Rustambek Yusufbekhoji o‘g‘lining “Ta‘limi avval”, “Ta‘limi soniy”, Mulla Ahmadxo‘ja eshon ibn Abdumo‘minxo‘ja eshon o‘g‘lining “Nasoyihul – atfol” (ikkinchi juz‘) kabi yigirmadan ortiq darslik va o‘quv qo‘llanmalari nashr etilgani haqida ma‘lumot bergan [3. B. 57].

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, bolalar uchun tanlab olingan asarlar yoxud darslik uchun maxsus yozilgan asarlarning tarbiyaviy ko‘rsatmalari Munavvar qori ishlab chiqqan yo‘riqnoma va nizom bandlariga muvofiq keladi. Masalan, Munavvarqori jadid maktablari uchun ishlab chiqqan maxsus 16

banddan iborat yo‘riqnomaning 10-bandida shunday deyilgan: Muallim bolalar tarbiyasi va axloqiga alohida e‘tibor berishi kerak. 12-bandida: Maktabda o‘qitiladigan darslar, qilinadigan nasihatlar diyonat, axloq, insoniyat doirasida bo‘lishi kerak. Usuli jadid maktabdorlari ham ma‘lum qonun-qolida doirasida harakat qilishlari uchun talabalar bo‘ysunishi shart bo‘lgan 11-moddadan iborat “Nizomnoma” bandlari shu davr maktab darsliklaridagi adabiy matnlar g‘oyasini o‘zida aks ettiradi [3. B. 97-98]. Bu borada Munavvarqorining “Adib us soniy”, Avloniyning “Birinci muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitoblari, Hamzaning “Yengil adabiyot” “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” kabi pedagogik risolalarini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Shunday qilib usuli jadid maktablarida Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Ali Asqar Bayramali Kalininning “Muallimi soniy”, Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy” Abdulla Avloniyning “Ikkinchi muallim”, “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar”, Mo‘minjon Muhammadjon o‘g‘lining “Nasoyih ul atfol” (“Bolalarga nasihatlar”) kitobining birinchi juz‘i (bu kitobda 36 soatlik dars uchun pand nasihat mavzusida 36 matn berilgan), Mulla Ahmadxo‘ja Eshonning “Nasoyih ul atfol” kitobining II juz‘i asosiy darslik sifatida o‘qitilgan. Munavvarqorining sa‘y-harakati bilan Kamiy, Avloniy, Tavallo, Sidqiy, Miskin, Fikriy, Hamza kabi zamonaviy shoirlarning sara she‘rlari jamlangan “Sabzavor” she‘riy to‘plamidan o‘qitishda foydalanilgan [3. B. 98-99].

Jadid pedagoglari yaratgan bolalarbop asarlari orasida Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Mevalar mojarosi” nomli munozara janriga oid turkum she‘rlari alohida ajralib turadi. Bu turkumda obrazlarning o‘zini namoyon etishi, tasvirda bayonga yo‘l qo‘yilmagani, bu esa asarda hikoyachining emas, qahramonning tasvirda asosiy o‘ringa chiqishi, natijada voqelikning jonlanishi kabi badiiylikning muhim shartlari amalga oshadiki, bu bolalar she‘riyati yangi qirralari bilan o‘zgarishga yuz tutganini ko‘rsatar edi.

Hamzaning ilm-ma‘rifat, maktab haqidagi she‘rlari, masallari tahlilga tortilgani holda “Mevalar mojarosi” turkumi mustaqillik davrida yaratilgan bolalar adabiyotiga oid darslik va qo‘llanmalarda tilga olinmagan. Hamzaning “Tanlangan asarlar” I tomida berilgan izohda shunday yozilgan: “Sanasi noma‘lum ushbu she‘r qo‘lyozmasi H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti Hamza arxivida (inv. № 115) saqlanadi. Katak daftar varaqlariga arab grafikasida qora qalam bilan yozilgan. Avtografga sarlavha qo‘yilmagan. She‘r “Tanlangan asarlar” (1949, 1979)da, “Asarlar” (1969)ning I tomida, va mukammal asarlar to‘plamining II tomida nashr qilingan. Nashrda qo‘lyozma asosiy matn qilib olindi” [5. B. 527], – deb yozilgan. ziyouz.com kutubxonasi saytida mavjud bo‘lgan Hamza “Tanlangan asarlar”ining 1-tomida (O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent – 1958) bu turkum yozilgan sana 1914 deb ko‘rsatilgan [6. B. 36].

Nazarimizda, Hamza ushbu she'ri maktab o'quvchilari uchun darsliklar yaratgan vaqtlarida yozgan. Chunki, "Yengil adabiyot" tarkibidagi she'rlarning qurilishi "Mevalar mojarosi"da she'rlarga o'xshaydi. "Mevalar mojarosi" kabi asarlar bolalarning tafakkurini kengaytirish va tasavvurini boyitishda muhim ahamiyatga egadir.

Mevalar orasidagi munozaralar xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyotimizning sara asarlarida uchraydi. Adabiyotshunos olim N.Rahmonov uning dastlabki ildizlari miflar bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tgan [7. B. 257]. Hamza bu munozarani bolalar tushuncha va anglamlariga mos tarzda yozgani uning pedagogik mahorati ulkan so'z ustasi ekanini bildiradi. O'rik bilan boshlangan "Mevalar mojarosi" mavsumiy mevalarning har turli jihatlarini o'quvchiga yetkazishni nazarda tutgan. "**O'ruk o'rnudan turub, Rangini sarg'ayturub, Keldi tutni boshiga, Shovqin solib, tik turub**". Misralarda takrorlangan "turub ma'noning turlanishiga sabab bo'lgan bo'lsa, o'rikning jonlantirilishi, tutning boshiga shovqin solib kelish o'rinlari o'zgacha manzara hosil qilib o'quvchini o'ziga rom etadi.

Dedi: "Ey tut taltayib,
Dema har so'z yalpayib,
Boshginangga bir uray,
Yerda qolgin shalpayib.

Tutga do'q urish ohangiga mos ravishda uyg'unlashib kelgan "taltayib", "yalpayib", "shalpayib" so'zlari tutning shu paytdagi fe'l-atvorini aks ettirgan. Ayniqsa, "**Boshginangga bir uray, yerda qolgani shalpayib**" deyilganlari holat bola ko'z o'ngida muhrlanib qoladi. Hamza ilg'or pedagog sifatida bolaga sirtidan ta'sir emas, ichdan ta'sir qilish ma'nosida obrazlarning o'zini jonlantirgan, ularga ma'no yuklagan.

Seni ko'p yegan kishi,
Badan qashimoq ishi,
Ortuqchadur ustiga
Yurakburuq tashvishi.

Muallif tutni ko'p yeganda yuz beradigan badan qichishishi, yurakburuq bo'lishini ham misralar orasiga joylaydiki, fanlar orasidagi integratsiya masalasi Hamzaning ham diqqat markazida turgani ayon bo'ladi.

Ore, man sandan keyin,
Sandan yuz hissa shirin,
Aytub ado qilayin,
Qaysi husnumni birin.

Munozara shartiga ko'ra so'z olgan obraz avval raqib etib tanlangan obrazni "do'pposlab" bo'lgach, o'zini tavsif qilishga o'tadi. Shuning uchun o'rik tutdan yuz hissa shirinligini aytib, husni bilan maqtanishga o'tadi. Bolalar uchun obrazlar o'rtasidagi qiyos asarni tez anglab olishlarida katta

o'rin tutadi. Shuning uchun qadimdan munozara tipidagi asarlarga qiziqish katta bo'lgan.

O'zum ming dardga davo,
Qurutsa andan bajo,
Hatto mag'zimni olub,
Solgay qandolat aro.

O'rik ming dardaga davo ekanligini, qandolatdagi muhim ahamiyatini bayon etgach: "**Muxtasar aylay so'zum, Meva ichra bir o'zum, Bog' ichini yorutar, Oppoq, oyindak yuzum**", – deya suhbatga yakun yasaydi. Mevalar mojarosi shu bilan tugamaydi. Aks holda munozara sharti bajarilmagan bo'ladi. Chunki bahs bir taraflama bo'lmaydi. Shuning uchun bahsga boshqa mevalar ham aralashadi. Chunonchi, "**Gilos haddan oshiqib, Xafalikdan toshiqib, Keldi o'ruk boshiga, Musht ko'tarib shoshiqib**" kelishi mojaroning davom etishiga ishora qiladi.

Tomonlar bahsda yutishi uchun tezkorlik, hozirjavoblik juda muhim. Bunday o'rinlarda voqea-hodisalar keskin tus oladi, ishtirokchilarning xotirjam bahs olib borishiga chek qo'yadi. Bu holat bolalar o'yinlaridagi vaziyatlarda ham yuz beradi. Demak, bolalar ishtirokchilarning kayfiyatiga tez moslashadi. Shuning uchun gilosning haddan oshishi, o'rikning boshiga "**Musht ko'tarib toshiqib**" kelishini o'quvchi tabiiy qabul qiladi.

«Ey o'ruk, san so'zlama,
Maqtanmoqni ko'zlama!
Yonboshingga bir tepay,
Bog'ga hargiz yuzlama.

Gilos o'rikning maqtanishiga e'tiroz bildiradi. Uning e'tirozi shunchalar kuchliki, "**Yonboshingga bir tepay, Bog'ga hargiz yuzlama**" deyish darajasiga boradi. Mana shu misralardagi so'zlashuv uslubi asar dramatzimini oshiradi. Shundan so'ng o'quvchi gilosning o'rikni kamsitishga tayyorligini his qiladi. Kutilganidek, "**G'o'rang qursun kech bitar, Yegan kishi ich ketar, Pishkoning shalpaytirib, Qurug'ingdan bod yetar**" degan ta'nalar yog'ila boshlaydi. Mana shu ta'nalar o'rinli ekanini bola sezib turadi. Shu tariqa har bir mevani istemol qilishda me'yorga amal qilish lozimligi ham uqtirib boriladi.

Munozaraning o'zini sifatlash, ta'riflash qismida gilosning o'ziga xos sifatlari bayon etiladi: "**Bilursan otim gilos, Suyar meni omu xos. Mani ko'rgan kishilar, O'zga meva xohlamas**". Shu tariqa gilosning "asaldan shirinligi", azaldan "ming kasal"ga dori ekanligi ham ta'rifdan chetda qolmaydi. Ammo gilos ancha kamtarin, u o'zining "haddini biladi". Shuning uchun: "**Kaltaroq qilay so'zim, Maqtasam arzir o'zim. Bog'ga kirgan ko'ziga, Yoqutdek yonar yuzim**", – deya bahsdan chetlashadi. Hamza bahsda ishtirok etgan oluchaning "**gezorib**", "**Qonlar tomib, qizarib**" kelishini mevaning rangi moslaydi. Boshdanoq mevalar rangining tasvirlanishi o'quvchilarda ularning ta'mi bilan bog'liq hislarini

ham uygʻotadi. Shuning uchun *«Ey gilos, lof urmagil, Achchigʻim kelturmagil! Tumshugʻingga bir solay, Soʻngra yigʻlab yurmagil»* degan misralarni toʻgʻri qabul qiladi.

Munozara qoidasiga koʻra qarshi tomonning illatlari ham bir-bir bayon etilishi lozim. Bunga olucha ham alohida eʼtibor qaratgan: *“Maza yoʻq, hukming turush, Chun oʻlarsan yoʻq qurush. Sani yeganlar boʻlur, Qoʻnich bezgak, ich burush”*. Oʻquvchi mojaro orqali yana bir mevaning “illati”dan xabar topadi. Bu esa bolalarda nafs tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Hamza xalq tabobatini yaxshi bilgan mutaxassis sifatida oluchaning ishtahani ochuvchi, yurakda paydo boʻlgan qurti davolovchi dori sifatidagi xislatini ham bayon etadi va nihoyat bolalarga maʼqul boʻlgan mavzu bilan yakunlaydi: *“Maqtasam bir yil oʻtar, Bogʻbon hoʻllikda sotar. Ortqanimni qurutib, Qand bila qiyom etar...”*

Kuzatilsa, mojaro ishtirokchilari boʻlgan mevalar boshidanoq bir-biriga doʻq-poʻpisa qilishadi. Bu holat bolalar tabiatiga begona boʻlmaganidek, turkum sarlavhasini ham asoslashga xizmat qilgan. Oʻrik tutning boshiga *“Shovqin solib, tik turub”* kelsa, *gilos “musht koʻtarib, shoshiqib”* keladi. Bu bilan kifoyalanmay, oʻrikning yonboshiga bir tepishini ham pisanda qilib oʻtadi. Yoki oluchaning gilosga *“Musht koʻtorib, bezorib”* turishida ham ularning tabiati bilan bogʻliq jihatlar borki, muallif bolalar koʻz oʻngida jonli tasvirni yuzaga chiqarishga erishgan. Xususan, oʻrik pishganda yerga tap-tap tushishi uning shovqin solishi, gilos va oluchaning musht koʻtarishlari mevalarning shakli bilan bogʻliq holda tasvirni jonlantiradiki, bu Hamza badiiy mahoratining bir yana bir qirrasini hisoblanadi. Misralarning soddasi, tushunarli soʻz va iboralardan tizilgani, hatto biroz qoʻpol koʻringan birikmalarning bola kundalik faoliyatidagi voqea-hodisalarga uygʻun holda muayyan obraz yaratishga xizmat qilgani muallifning bola tabiatidan, uning ruhiyatidan yaxshigina boxabar ustoz boʻlganiga ishoniradi.

Hamza oʻzining zamondoshlaridan farqli tarzda bolalar adabiyotiga oid koʻplab sheʼrlarini barmoq tizimida yozgan. Bu bolaning sheʼrini oson yodlashi, undagi fikrlarni oʻzlashtirishiga qulaylik tugʻdirgan. Hamza oʻz davridagi darsliklar bolalarga ochiq va tushunarli boʻlishiga harakat qilgan edi. Shu maqsadda 1914-1915- yillar oraligʻida bolalar uchun *“Yengil adabiyot”*, *“Oʻqish kitobi”*, *“Qiroat kitobi”* kabi bir qator darsliklar yaratgan. Boshlangʻich taʼlimni nazarda tutilgan mazkur darsliklarda muallif sheʼriy asarlarning oʻquvchiga oson va tushunarli boʻlishi uchun barmoq tizimini maʼqul koʻrgan edi. *“Yengil adabiyot”*dagi 45 saboqqa moʻljallangan 1-30-darslaridagi sheʼrlar barmoq tizimining 7 boʻgʻinli vaznida (4+3 turoq) yozilgan edi. Oʻqish va yodlashga oson boʻlgani uchun bolalar ijodkorlari hozirda ham 7 boʻgʻinli sheʼrlar yozishga koʻp eʼtibor berishadi. 7 boʻgʻinli misralar koʻtarinki kayfiyatni ifodalash, harakat tezligini tasvirlashga qulay. Shu maʼnoda Hamza *“Mevalar mojarosi”* turkumiga 7 boʻgʻinli

vaznni tanlaydiki, 4+3 turoq aynan mojaroning tezlashgan oʻrinlariga tabiiylik bagʻishlagan.

XULOSA

Yuqorida sanab oʻtilgan asarlarga tanlangan matnlar didaktik xususiyatlari bilan umumiydashadi. Didaktik adabiyotda davrning axloqiy taʼlimiy qarashlari oʻz ifodasini topadi. Ayniqsa, bolalarga bagʻishlangan asarlarda didaktik xususiyatlar ancha boʻrtiq holda namoyon boʻladi. Shuni ham aytish lozimki, XX asr boshlari bolalar sheʼriyati, nasri (hikoyatlar, masallar, ibrat va pandlar)ning mavzu koʻlami nisbatan cheklanganligini kuzatish mumkin. Maktab mavzusi (*“Yengil adabiyot”*ning 6-13-darslaridagi sheʼrlar), ilm-maʼrifatga targʻib (*“Yengil adabiyot”* 15-36-darslar) axloq-odob, vatanparvarlik mavzusidagi (*“Turkiy Guliston yoxud axloq”*, *“Adibsoniy”*), tarbiyaviy mohiyat kasb etadigan majoziy xarakterdagi asarlardan iborat edi.

Shuningdek, bu davr bolalar adabiyotiga ajratilgan asarlar gʻoyasida millat bolalariga xitob, ilm olishga daʼvat, jaholatning zarari, ota-onaga munosib farzand, Vatanga muhabbat, axloq va tarbiya kabi umumiy didaktik masalalar yetakchilik qildi.

Tashakkur

Ushbu maqola IL-402104474 raqamli *“bolalalar adabiyoti.uz”* multimediali elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish nomli innovatsion loyiha doirasida yaratildi.

Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlimning filologiya, oʻzbek tili va adabiyoti, maktabgacha taʼlim, boshlangʻich taʼlim, pedagogika, psixologiya yoʻnalishi tahsil olayotgan bakalavr va magistratura talabalari uchun, bolalar adabiyoti va folklori boʻyicha tadqiqot olib borayotgan ilmiy izlanuvchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun moʻljallangan *“bolalaradabiyoti.uz”* multimediali elektron platformasi va uning mobil ilovasi ayni damda Oʻzbekiston xalqi uchun maʼnaviy mulk boʻlib xizmat qilmoqda. Mazkur platforma, avvalo, taʼlimga muayyan darajada hissa qoʻshish va kitobxonlikni rivojlantirish, bolalar adabiyoti, bolalar folklorini targʻib va tashviq qilish, keng kitobxonlar ommasiga maʼrifat va maʼnaviyat ulashish maqsadida tashkil qilingan. *“bolalaradabiyoti.uz”* platformasi *“Bosh sahifa”*, *“Elektron kitoblar”*, *“Audio kitoblar”*, *“Mualliflar”*, *“Yangiliklar”*, *“Loyiha haqida”* kabi bir necha boʻlimlardan iborat. Har bir boʻlim maʼlum sahifalarda shu boʻlimning mohiyatini aks ettiruvchi mavzularni oʻzida jamlagan. Turli yillarda nashr etilgan bolalar adabiyoti va bolalar folkloriga oid manbalarni tizimli ravishda bir yerga jamlash, bunga hozirgi kun nafasini berish, yaʼni ularni elektron, audio va video shakllarda umumlashtirish, yaxlit tizim holatiga keltirish, shuningdek, bolalar adabiyoti tadqiqotchilari va ijodkorlari haqidagi maʼlumotlarni jamlash, tizimga solish va ularni muayyan boʻlimlarga aks ettirish, bolalar adabiyoti, taʼlim va

tarbiyasiga oid maqolalarni doimiy ravishda yoritib borish ushbu platformani yaratishda ko'zda tutilgan maqsad hisoblanadi.

Elektron platforma quyidagi funksional imkoniyatlarga ega:

Elektron platforma turli yillarda nashr qilingan bolalar adabiyoti, bolalar folkloriga oid badiiy adabiyotlar, darsliklar, xrestomatiyalar, bolalar ensiklopediyalari, turli janrlardagi to'plamlarni o'zida aks ettira olgan.

"Audio kitoblari" sahifasida elektron platforma uchun maxsus yaratilgan "Jajji bolajon", "Quvnoq bolajon", "Zukko bolajon", "Bilimdon bolajon" ertak kitoblari seriyasida 3 yoshdan 12 yoshgacha bolalarga atalgan ertaklarning audio shakllarini eshitish imkoni mavjud. Mazkur ertak kitoblarning rus va ingliz tillaridagi audio shakllari ham shu bo'limdan joy olgan.

"Bolalar qo'shiqlari" kitobidan joy olgan audio matnlarda bola tug'ilganidan esini tanigunga qadar oraliqda aytiladigan turli aytim va olqishlarning ham audio shaklini eshitish mumkin.

"Kitobxon bolajon" seriyasida 1-2-3-sinf o'quvchilari uchun amaldagi dastur asosida muayyan mavzularga biriktirilgan badiiy adabiyot namunalarining audio shakllarini bolalar ijodkorlari, ya'ni mualliflar tomonidan o'qilgan ovoqli shakllarini ham eshitish mumkin. Bolalar uchun yaratilgan "Sehrli so'zlar lug'ati"da berilgan milliy urf-odatlariga oid taklif-so'z gaplarning audio shakllarini ham eshitish mumkin. Barcha audio matnlar maxsus rasmlar bilan bezatilgan.

"Video materiallar" bo'limida bolalar tadqiqotchilari, bolalar ijodkorlarining hayot va ijodiga oid ma'lumotlar, bolalar ijodkorlari haqida tayyorlangan maxsus videolavhalar bilan tanishish mumkin.

"Maqolalar" bo'limida bolalar adabiyoti, folklori, ta'lim va tarbiyasiga oid maqolalar bilan tanishish mumkin.

"Yangiliklar" bo'limida platforma uchun maxsus tayyorlangan kitoblarning elektron shakllari o'rin olgan. Bu kitoblari "Jajji bolajon", "Quvnoq bolajon", "Zukko bolajon", "Bilimdon bolajon" kabi o'zbek tilidagi, "Malenkoye ditya", "Veselye rebyatishki" kabi kitoblari rus tiliga, "Little boy", "Happy boy" singari ingliz tiliga tarjima qilingan rasmlar bezakli kitoblarning har bir ertagi ovoqlashtirilgan va QR kod bilan belgilangan. "Kitobxon bolajon" (1-2-3-sinflar uchun) kitoblari ham rasmlar bezakli holda ovoqlashtirilgan va QR kod bilan ifodalangan, Ushbu kitoblari amaldagi dastur asosida tayyorlangan, sinfdan tashqari va to'garak mashg'ulotlarida foydalanishga mo'ljallangan. QR kodni belgilash orqali 1-sinfda matn muallifi tarjimai holi bilan, 2-sinfda matn muallifi tomonidan o'qilgan ovoqli asar haqida, 3-sinfda matn muallifi hayoti va ijodiga oid turli mavzudagi video lavha bilan tanishish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan, ilmiy asosga bir necha izohli lug'atlar ham mana shu bo'limda aks etgan. Lug'atlar orasida fanlar kesimidagi, sinflar kesimidagi va umumlashtirilgan maxsus atamalar va umumiy so'zlar lug'atiga oid 10 ta lug'at kitobi ham o'rin olgan. Izohli lug'atlardan tashqari "Sehrli so'zlar lug'ati" (ovoqlashtirilgan va har bir so'z uchun QR kod bosilgan), "Bolalarbop so'zlar lug'ati" ham mana shu bo'limda aks etgan. Shuningdek, turli mavzularni o'zida birlashtirgan hamda 17 ta katta bo'limni o'zida jamlagan "Onalar va bolalar"(4ta bo'lim), "Ilm oldim – bilib oldim"(4ta bo'lim), "Fasllar tarovati"(4ta bo'lim), "Men Vatanning dilbandi"(5ta bo'lim) kabi 4ta yirik badiiy matnlar to'plami ham joy olgan.

"Oqil bolajon" deb nomlangan bolalar uchun tanlab olingan maqollar to'plami ham mana bo'limda joy olgan

Har bir to'plam maxsus rasmlar bilan bezatilgan. Yangiliklar bo'limidagi kitoblari bilan yaxshi tanishish, ularni o'qish uchun bu kitoblari "Elektron kitoblari" sahifasiga ham joylashtirilgan.

ADABIYOTLAR:

- [1] Abdullayev Y. Eski maktabda xat-savodga o'rgatish. – Toshkent: "O'rta va oliy maktab", 1960. –152 b.
- [2] Barakayev R. Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. "Jadid ma'rifatparvarlarining milliy ta'lim, matbuot, adabiyot va san'atni rivojlantirishga qo'shgan hisssasi va uning Milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati" mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2016. B. 145-150.
- [3] Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: Universitet, 2006. – 128 bet.
- [4] Fattayev M. Atoqli pedagoglarimiz. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. – 52 bet.
- [5] Niyoziy Hamza Hakimzoda. To'la asarlar to'plami. Besh tomlik. Ikkinchi tom. – Toshkent: Fan, 1988. – 552 bet.
- [6] Mahkamova T. Madrasalar ta'limida adabiyot o'qitish usullari. – T.: Mumtoz so'z, 2017.
- [7] Кафарова С. Г. Азербайджанская детская литература: общие вопросы. Ученые записки Таврического национального университета им. В. И. Вернадского Серия «Филология. Социальные коммуникации». Том 23 (62). № 3. 2010 г. С. 247-250.
- [8] Марьяна О.В. Сухотерина Т.П. Жанровое своеобразие текстов детской литературы последней трети XX – начала XXI вв. (к постановке проблемы). Мир науки, культуры, образования. ISSN 1991-5497. № 3 (64) 2017
- [9] Мингазова Л. И. Татарская детская проза 1920-60-х годов: тематика, проблемы, тенденции. Филология и искусствоведение. Вестник ЧГПУ 4'2011. Стр. 246-253
- [10] Маатазимова Г.Э. Башталгыч класстарда балдар адабиятын окутуунун зарылдыгы. (Необходимость обучения детской литературы в начальных классах). Известия вузов Кыргызстана. DOI:10.26104/IVK.2019.45.557 № 4, 2019. 68-71-б.
- [11] Мустафаева Х. Б. Азербайджанская детская литература в 20-30-е годы XX века / Х. Б.

Мустафаева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2009. — № 5 (5). — С. 110-113. — URL: <https://moluch.ru/archive/5/392/> (дата обращения: 29.10.2023).

[12] <http://bolalaradabiyoti.uz/>